



“TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY
JURNALI**

Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 10 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. eshbolta_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. navruza_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. nurillo_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. muxiddin_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,
Termiz, O'zbekiston. oltiboy_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. maqsuda_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv_urolova@tues.uz

MUNDARIJA

G. E. TURAYEVA

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

G.T. JUMAYEVA

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

O.Ch.XOLOV

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

N.M. SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

M.Y.MADIEVA

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

S.Q. ESHBOYEVA

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

N.N. SHODIYEVA

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

K.Sh.OLTIBOYEVA

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

U.A. TASHBAYEVA

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

M.Y.MADIEVA

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

R.D. NORQOBILOVA

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

G'.A. MAMARAJABOV

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

F.A. ABDURAZZOQOV

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

A.Ch. QOSIMOV

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

M.X. FAYZULLAYEVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

S.A. JABBOROVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

F. YORMATOV

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari70

R. R. KHAMRAEVA

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

I.H. JUMAYEV

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

N.A. UMAROVA

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

I.B. QARSHIYEVA

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89



Termiz davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Turayeva Gulnoz Ergashevna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVIY TARBIYALASHDA O'QUV JARAYONINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Maqolada o'quvchi-talabalarni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorash komponentlari to'g'risida fikr-mulohaza yuritilgan.
Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, jarayon, fikrlash, tizim, ko'nikma, malaka, amaliyot, daraja, vaziyat, qobiliyat, kompetensiya, texnologiya, metodika, axborot texnologiyasi, ijodiy.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются составляющие подготовки студентов как высококвалифицированных, конкурентоспособных кадров, отвечающих требованиям времени. Ключевые слова: образование, обучение, процесс, мышление, система, навык, компетенция, практика, уровень, ситуация, способность, компетенция, технология, методика, информационная технология, креатив.

ABSTRACT

The article discusses the components of preparing students as highly qualified, competitive personnel that meet the requirements of the time.
Key words: education, training, process, thinking, system, skill, competence, practice, level, situation, ability, competence, technology, methodology, information technology, creativity.

KIRISH.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida pedagogik fanlarni o'qitish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'zlashtirilgan pedagogik bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda baholash, shuningdek, pedagogik fanlar bo'yicha yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, sog'lom tarbiya tizimini rivojlantirishda uzluksizlik, uzviylik, yaxlitlik va o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydigan "bosqichma-bosqich ta'lim" tushunchasi tavsiya qilinadi. Ushbu tushuncha asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom tarbiyalashdan tortib, sog'lom madaniy shaxs sifatida shakllanishgacha bo'lgan jarayon qamrab olinadi. Bu jarayon tarbiyanuvchilarda sog'lom tarbiyaga tayyorgarlik, sog'lom fikrlash, o'z fikriga ega bo'lish, sog'lom ong va madaniy sifatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Endilikda ta'lim-tarbiya maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyada o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, elektron, axborot) kirib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning erkin shaxs sifatida rivojlanishi masalasi oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu jarayon murakkab bo'lib, osonlikcha amalga oshirilmaydi, chunki ixtiyoriy ravishda qurilayotgan va joriy etilayotgan ta'lim tizimini qat'iy ilmiy asosga ega pedagogik tizimga aylantirish zarur. V.P. Bepalkoning ta'rifiga ko'ra, "pedagogik tizim – ma'lum shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va oldindan puxta o'ylangan pedagogik ta'sirni amalga oshirish uchun o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar majmuasi" [1].

Hozirgi kunda ro'y berayotgan sifati o'zgarishlari shuni ko'rsatmoqdaki, "o'rganish"ning asosiy jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalarining qolipiga sig'may, o'qituvchining individual qobiliyatlariga mos kelmay qolmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismlariga aylanib, o'ziga xos xususiyatlarini joriy etayotgan va yangi metodikani talab qiladigan texnik, axborot, poligrafik va audiovizual vositalar mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik



texnologiyani haqiqiy amaliyotga aylantirmoqda. Tadqiqot metodologiyasi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab obyektiv voqelikka aylandi. Axborotlashtirish esa bu jarayondagi inqilobiy "burilish", ya'ni ta'lim-tarbiya axborot texnologiyalari – bu "Bo'lajak o'qituvchi - kompyuter" o'rtasidagi muloqot.

Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-texnikaviy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining har qanday turi, bosqichi yoki darajasida muhim va asosiy vazifalardan biridir. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilar texnika, texnologiya va pedagogika asoslari bo'yicha keng bilimlarga ega bo'lishi zarur, ammo bu bilimlardan samarali foydalanish uchun tegishli ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, ular ko'zlangan maqsadlarga erisha olmaydi. O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni amaliyotda qo'llash usullari va vositalarini chuqur bilish ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga, zamonaviy texnika, mehnat qurollari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayonini yanada samarali va innovatsion qilishga xizmat qiladi [1].

Keng ko'lamli va mustahkam bilimlarga asoslangan ko'nikmalar, malakalar, kompetensiyalar, shuningdek, qiziquvchanlik, tashabbus, initsiativa, ijodkorlik va mustaqil ravishda muammolarni hal qilish qobiliyatlari talabalarda ijodiy salohiyatni shakllantirishning asosiy omillari hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalarining o'z faoliyatiga yuqori talabchanlik bilan yondashishi, aniq maqsadlarga intilishi va doimiy ravishda o'zini o'zi rivojlantirishga intilishi ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat o'qituvchilarning professional tayyorgarligini oshiradi, balki ularning zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy sharti faoliyatdir. Shu sababli, pedagogning bosh vazifasi ushbu faoliyatni tashkil qilishning shakl, metod, vosita va yo'llarini aniqlab, talabalarni zarur axborot bilan ta'minlashdan iboratdir. Ammo axborot ta'minotining ortiqcha ko'pligi

vazifani samarali hal qilishga xizmat qilmaydi. Shuning uchun axborot ta'minotini pedagogik jihatdan tizimli boshqarish, zamonaviy texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitilganligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Maqsadli pedagogik boshqaruv o'z mazmuni, vaqt omili va sharoitlariga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Uning yo'nalishlari shartli ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy va ilmiy-texnikaviy maqsadlar sifatida tasniflanadi.

Ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning muhim sharti maqsadli pedagogik boshqaruvda ishtirok etuvchi bo'lajak o'qituvchilar shaxsini yuqori sifatli va obyektiv axborotlar bilan ta'minlashdir. Faqat obyektiv axborotgina maqsadga yo'naltirilgan faoliyat uchun harakatlantiruvchi vosita sifatida xizmat qila oladi. Bo'lajak o'qituvchining miyasi turli xil axborotlarni turli darajada qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib, bu ma'lumotlarni yengil, erkin va qiziqarli uzatishni talab etadi. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida yuqori samaraga erishish didaktika muammosi hisoblanib, asosan, ko'rsatmalilik tamoyilini ta'minlash borasidagi faol harakat metod deb baholanadi [4].

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ko'rsatmalilik zaruriyati bilish jarayoni tavsifi, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, undan keyin esa amaliyotga o'tishi bilan bog'liq. Pedagoglar va psixologlarning ta'kidlashicha, sezgi va tasavvur qilishdan tashqarida fikrlar harakatlanmaydi. Shuningdek, o'qitish jarayonida olg'a siljish bo'lmaydi [1]. Demak, ko'rsatmalilik faqat ongga ta'sir etish bilan chegaralanmasdan o'rganuvchidan ma'lum his-hayajonli motivni yuzaga chiqaradi, his etish va mantiqiy fikrlash birligi asosidagina egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning yangi pog'onasida o'qitishni axborot texnologiyalari vositalarisiz ko'tarib bo'lmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim ko'rsatkichlaridan biri – axborotlarni bo'lajak o'qituvchilarga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida ta'minlanadi

Ushbu ma'lumotlar fan asoslarining axborot ta'minoti mazmuni va ijodkorlik metodlarini boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Bo'lajak o'qituvchini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayoni samarasi ko'p jihatdan uning axborot ta'minotiga ega bo'lishini va pedagogik jihatdan boshqarish yo'nalishlarining tizimli, uzluksiz va uzviy

bo'lishini taqozo etadi.

Ma'rifatli va madaniyatli dunyoviy ta'lim-tarbiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi shakllanishida u mansub bo'lgan muhit hamda unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'ladi [3].

Shunday qilib, fanning rivojlanishi bilan texnika taraqqiyoti bir-birini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta'minlash muayyan darajada boshqarish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ammo o'quv mashg'ulotlarini ta'lim metodlari bilan boyitish ta'lim-tarbiya tizimi va mantig'ini buzmasligi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya bo'lajak o'qituvchida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yig'ish hamda ulardan mashg'ulot jarayonida foydalanish yo'lida ma'lum imkoniyatlarni yaratadi.

Zero, shaxs mansub bo'lgan muhitda uning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Shaxs faoliyat olib borayotgan muhit doirasida OTMlarining alohida o'rni bor.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyatimiz ijtimoiy sohasining markaziy xalqasi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlarga olib keldi. Bo'lajak o'qituvchilar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta'lim-tarbiya mazmunini kengaytirish, chuqurlashtirish va boyitish hamda ta'lim uzluksizligi va uzviyligini ta'minlab berish uchun yangi qonun va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiya yaratilmoqda [1]. Zamonaviy pedagogik texnologiya fani asoslari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy yondashuvlar va yangicha fikrlash asosida ta'lim-tarbiya jarayonida bilim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini samarali tashkil qilish uchun eng muvaffaqiyatli shakl va metodlarni joriy etish, shuningdek, ularning mustaqil ishlarini tizimli va samarali ravishda yo'lga qo'yish zarur. O'quv-tarbiya jarayonlarini ilmiy-metodik jihatdan puxta tashkil etish muvaffaqiyatning asosiy kafolati hisoblanadi. Barcha turdagi mashg'ulotlar va mustaqil topshiriqlar talabalarni mustaqil o'ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama

tahlil qilishga va berilgan vazifalarni o'z hayotiy tajribalariga asoslanib hal qilishga undaydi. Mashhur ingliz yozuvchisi J. Bernard Shou ta'kidlaganidek, "Bilimga yetaklovchi yagona yo'l – bu faoliyatdir" [2]. Aynan shunday faoliyat bo'lajak o'qituvchilar va o'qituvchilarning mehnat ko'rinishlarida uyg'unlashganda, kutilganidan ham yuqori natijalarga erishish imkoniyati paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov A.S, Nazirov J.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish muammolari / Интернаука. 18-5 (194). 2021. Стр. 49-51.
2. Н.Т.Омонов, М.В.Хаттабов Педагогик texnologiyalar va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma /; – T.: «IqtisodMoliya», 2016, – 85 b.
3. Анисимов П. Г. Воспитание эмоционально-волевой культуры будущего специалиста в условиях высшего профессионального образования/ дисс. пед. наук. 2015. Стр.-65.
4. Turaeva, G. E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone (pp. 163-165).
5. Turaeva, G. E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 407-410.
6. Turaeva, G. E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 90-93.
7. Turayeva G. COMPUTER DIDACTIC GAMES IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – T. 23. – С. 70-72.
8. Тураева, Г. Э., & Бадалов, Д. А. (2019). Инновационный подход к обучению геометрическим фигурам ученикам начальных классов. Научные горизонты, (5-1), 320-323.
9. Исмоилов, Б. Т., Бадалов, Д. А., & Тураева, Г. Э. (2019). Постановка и решение задачи: найти площадь четырехугольника по четырём сторонам. Научные горизонты, (5-2), 43-47.
10. Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari — T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -24-bet.